



“YOSHLAR – ISLOHOTLARNING MARKAZIDA: PREZIDENT SIYOSATIDA USTUVOR YO‘NALISHLAR”

Mualliflar: Ilmiy tadqiqotchilar:

Sheraliyev Javohir Ilhom o‘g‘li Toshkent farmatsevtika instituti Farmatsiya
yo‘nalishi 3-kurs talabasi,

Raximov Muxammadamin Olimjon o‘g‘li Toshkent Farmatsevtika instituti
4-kurs talabasi,

Ismoilova Marjona Burxonovna Toshkent farmatsevtika instituti 4-kurs
talabasi,

Ilmiy rahbar: Shermatova Iroda Baxtiyorovna Toshkent farmatsevtika
instituti PhD,
muhhammadamin_raximov@icloud.com iroda.shermatova.94@mail.ru
javoxirsher1619@gmail.com

Kalit so‘zlar: Yoshlar siyosati, prezident tashabbuslari, yangi o‘zbekiston, islohotlar, kelajak avlodi, yoshlar imkoniyatlari, ta’lim va ilm-fan, yoshlar bandligi, innovatsion g‘oyalar, davlat dasturlari, yoshlar huquqlari, yoshlar tadbirkorligi, vatanparvarlik tarbiyasi, yoshlar ittifoqi, ijtimoiy faoliyat, yoshlar yetakchiligi, rivojlanish strategiyasi, yoshlarga e’tibor, yoshlar ta’limi, yoshlar tarbiyasi, iqtidorli yoshlar, yoshlar rivoji, yoshlar yutuqlari, yoshlar qo‘llab-quvvatlovi, yoshlar huquqiy madaniyati.

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida yoshlar siyosati sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, davlat rahbarining tashabbuslari hamda qabul qilingan muhim normativ-huquqiy hujjatlar keng yoritiladi. Xususan, 2016-yilda qabul qilingan “Yoshlar siyosati to‘g‘risida”gi Qonun, Prezidentning 2017-yil 5-iyuldagи PF-5106-sон Farmoni asosida Yoshlar ittifoqining tashkil etilishi, 2020-yil 30-iyunda imzolangan PF-6017-sон Farmon bilan Yoshlar ishlari agentligining



tuzilishi va uning vazifalari, shuningdek, 2021-yil 19-yanvardagi PQ-4958-son qaror orqali yoshlarning ta’lim olishi, bandligini ta’minlash va ijtimoiy himoyasini kuchaytirish yo‘lidagi chora-tadbirlar tahlil qilinadi. Maqolada ta’lim va ilm-fan sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, yoshlarning kasb-hunar egallash imkoniyatlarini kengaytirish, startap va innovatsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlash, yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish, yoshlarni vatanparvarlik va huquqiy madaniyat ruhida tarbiyalash masalalari alohida ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, Prezident tashabbuslari asosida o‘tkazilayotgan Yoshlar forumi, Yoshlar parlamenti faoliyati, yoshlarni xalqaro miqyosda raqobatbardosh kadr sifatida tayyorlashga doir strategik yo‘nalishlar ham yoritiladi. Davlat siyosatida yoshlarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilish, ularning intellektual salohiyatini oshirish, ijtimoiy hayotda faol ishtirokini ta’minlash ustuvor vazifa sifatida belgilanganligi maqolada asosiy mazmunni tashkil etadi. Shu bois, maqola yoshlar siyosatining huquqiy asoslari, amaliy natijalari va istiqboldagi ustuvor yo‘nalishlarini chuqr tahlil qilishga qaratilgan.

Kirish. (Introduction). Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida yoshlar siyosati davlatning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Zero, mamlakat kelajagi yoshlar qo‘lida ekanligi, ularning bilimli, irodali, vatanparvar va raqobatbardosh kadrlar sifatida shakllanishi jamiyat taraqqiyotini belgilab beradi. Shu boisdan Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida so‘nggi yillarda yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ta’lim, ilm-fan, madaniyat, sport hamda tadbirkorlik sohalarida keng imkoniyatlar yaratishga qaratilgan qator muhim islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, 2016-yilda qabul qilingan “Yoshlar siyosati to‘g‘risida”gi Qonun, 2017-yil 5-iyuldaggi PF-5106-son Farmon bilan Yoshlar ittifoqining tashkil etilishi, 2020-yil 30-iyunda imzolangan PF-6017-son Farmon asosida Yoshlar ishlari agentligining tuzilishi, 2021-yil 19-yanvardagi PQ-4958-son qaror orqali yoshlarning ta’lim olishi va bandligini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar davlat siyosatining asosiy



huquqiy poydevorini yaratdi. Bu hujjatlar nafaqat yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, balki ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, huquqiy madaniyatini yuksaltirish, intellektual salohiyatini rivojlantirish, xalqaro maydonda raqobatbardosh kadrlar sifatida tayyorlashga xizmat qilmoqda. Shu bois, yoshlar siyosati mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning markazida turib, ularni yangi bosqichga ko'tarishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. 2017-yil 5-iyuldagи PF-5106-son Farmon "O'zbekiston yoshlар ittifoqini tashkil etish to'g'risida" bo'lib, bu hujjat mamlakatda yoshlар masalalariga alohida e'tibor qaratish, ularning manfaatlarini himoya qilish, ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida qabul qilingan. Mazkur Farmon asosida Yoshlar ittifoqi tashkil etilib, uning zimmasiga yoshlarni jinoyatchilikdan asrash, ularning ta'lim-tarbiyasiga ko'maklashish, iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash kabi vazifalar yuklatildi. 2020-yil 30-iyunda qabul qilingan PF-6017-son Farmon "O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligini tashkil etish to'g'risida" bo'lib, unda davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida yoshlar bilan tizimli ishslashni yanada samarali tashkil etish ko'zda tutilgan. Ushbu farmon bilan yangi agentlik tuzilib, yoshlarning bandligi, ta'lim olishi, tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy himoya qilish bo'yicha aniq mexanizmlar belgilandi. Shuningdek, 2021-yil 19-yanvardagi PQ-4958-son qaror "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" bo'lib, unda yoshlar bandligini ta'minlash, ularni zamonaviy kasb-hunarlargaga o'qitish, startap loyihamalarini moliyalashtirish va yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish masalalariga keng yo'l ochildi. Bu farmonlar va qarorlar O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining huquqiy asoslarini mustahkamlabgina qolmay, balki yoshlarning har tomonlama rivojlanishi uchun amaliy sharoitlar yaratdi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). O'zbekiston Respublikasida yoshlar siyosati bo'yicha qabul qilingan Prezident farmonlari va qarorlarining ijrosi



mamlakat ijtimoiy hayotida muhim natijalarini berdi. 2017-yil 5-iyuldaggi PF-5106-son Farmon asosida tashkil etilgan O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi qisqa fursatda yoshlarning haqiqiy tayanch tashkilotiga aylandi. Ittifoq orqali minglab yoshlar turli loyihalarda ishtirok etib, ularning tashabbuslari qo‘llab-quvvatlandi, iqtidorli yoshlarni rag‘batlantirish tizimi yo‘lga qo‘yildi, jinoyatchilikka qarshi profilaktika ishlari samarali olib borildi. Ayniqsa, “Yoshlar – kelajagimiz” Davlat dasturi orqali yoshlarning biznes loyihalarini moliyalashtirish, tadbirkorlik faoliyatini boshlash va ularning iqtisodiy faolligini oshirishda katta yutuqlarga erishildi. 2020-yil 30-iyunda imzolangan PF-6017-son Farmon asosida tashkil etilgan Yoshlar ishlari agentligi esa davlat siyosatini yanada tizimli darajaga ko‘tardi. Agentlik tashabbusi bilan “Yoshlar daftari” amaliyatga joriy qilinib, yoshlarning ehtiyojlari, muammolari va imkoniyatlari o‘rganila boshlandi. Ushbu mexanizm orqali yoshlarning bandligi ta’minlandi, ularni kasb-hunarga o‘qitish, imtiyozli kredit va grantlar ajratish, startap loyihalarni qo‘llab-quvvatlash imkoniyatlari yaratildi. Shu bilan birga, yoshlarning sport va madaniyat sohalarida o‘z qobiliyatlarini namoyon etishi uchun maxsus dasturlar ishlab chiqilib, davlat va homiylik mablag‘lari yo‘naltirildi. 2021-yil 19-yanvardagi PQ-4958-son qaror esa yoshlar bandligini ta’minalash va ularning ijtimoiy faolligini oshirishda yangi bosqichni boshlab berdi. Qaror asosida hududlarda kasb-hunarga o‘qitish markazlari tashkil qilinib, yoshlarning IT texnologiyalari, xorijiy tillar va hunarmandchilik bo‘yicha bilim olish imkoniyatlari kengaydi. “Har bir oila – tadbirkor” dasturi doirasida yosh tadbirkorlarga imtiyozli kreditlar ajratilishi natijasida minglab yangi ish o‘rinlari yaratildi va yoshlarning iqtisodiy faolligi ortdi. Bundan tashqari, yoshlarning siyosiy hayotda ishtirokini ta’minalash maqsadida Yoshlar parlamenti, Yoshlar ishlari kengashlari va turli ijtimoiy platformalar faoliyati yo‘lga qo‘yildi, bu esa yoshlarning davlat boshqaruvida o‘z fikrini erkin bildirishiga, qonun ijodkorligida ishtirok etishiga imkon berdi. Shuningdek, farmon va qarorlarning ijrosi yoshlarga oid davlat siyosatini faqat huquqiy hujjatlar doirasida emas, balki amaliy hayotda ham samarali



tarzda amalga oshirilayotganini ko‘rsatib berdi. Bu islohotlar natijasida yoshlarning huquq va manfaatlari keng himoya qilinmoqda, ularning ta’lim, ilm-fan, sport, madaniyat, tadbirkorlik va siyosiy hayotdagi o‘rni mustahkamlanib, kelajak avlodning raqobatbardosh kadr sifatida shakllanishi uchun puxta zamin yaratildi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). O‘zbekiston yoshlari siyosatini izchil amalga oshirishda oxirgi yillarda amalga oshirilgan islohotlar jamiyat hayotida sezilarli natijalar berdi. Yoshlarga ta’lim olish, kasb-hunar egallash, tadbirkorlik bilan shug‘ullanish, sport va madaniyat sohalarida o‘zini ko‘rsatish uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ijtimoiy hayotda faol bo‘lishlari uchun mustahkam asoslar shakllantirildi. Yurtimizda yoshlarning tashabbuslari qo‘llab-quvvatlanayotgani, innovatsion loyihibalarini amalga oshirishga grant va kreditlar berilayotgani, ularning xalqaro maydonga chiqishi uchun keng sharoitlar yaratilayotgani amaliy natijalar sifatida e’tiborga loyiqidir. Biroq, bu borada hali oldimizda bajarilishi lozim bo‘lgan vazifalar ham talaygina. Shu bois, taklif sifatida hududlarda yoshlarning muammolarini yanada chuqur o‘rganish, ularni hal etishda joylardagi rahbarlarning mas’uliyatini oshirish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, yoshlarning ijodiy va intellektual salohiyatini rivojlantirish uchun zamonaviy texnologiyalarga asoslangan markazlar tashkil etish, xalqaro tajribalarni o‘zlashtirish imkoniyatlarini kengaytirish lozim. Yana bir muhim jihat – yoshlarning ijtimoiy hayotdagi faolligini oshirish, ularni mahalliy boshqaruv organlari faoliyatiga jalg qilish, ularning ovozi va fikriga qulq solish tizimini mustahkamlash zarur. Umuman olganda, yoshlari siyosati bugungi kunda mamlakat taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, uni samarali amalga oshirish O‘zbekistonning kelajagi, barqaror taraqqiyoti va yangi avlodning har tomonlama barkamol bo‘lib voyaga yetishini ta’minlaydi.



Foydalanilgan adabiyotlar

- 1) Mirziyoyev Sh.M. “Yangi O‘zbekiston – inson qadri ulug‘langan jamiyat va xalqparvar davlat”. – T.: O‘zbekiston, 2021.
- 2) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-iyundagi PQ-5150-sonli qarori “Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.
- 3) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti: “Globallashuv va yoshlar: imkoniyatlar va xavf-xatarlar” mavzusidagi tahliliy hisobot. – Toshkent, 2023.
- 4) Shamsudinova M.U. “O‘zbekiston ta’lim tizimida ma’naviy-ma’rifiy ishlarning o‘rnvi va ahamiyati”. Andijon davlat pedagogika instituti. maqola.reandpub.uz
- 5) Usenov Jiengaliy. “Globallashuv jarayonlarining yoshlar ma’naviy tarbiyasiga ta’siri”. Ustozlar uchun jurnali. [Pedagoglar](#)
- 6) Miraxmedov J. “Zamoniy ta’lim tizimida yoshlar ongida milliy o‘zlikni anglash va tarixiy ongning shakllantirish masalalari”. sciencetechnology.uz
- 7) Rahmonova S.S. “Globallashuv jarayonida ta’lim-tarbiya uyg’unligining ahamiyati”. modernenedu-dv.com
- 8) Jamolova Shoyira Uyg’un qizi & Hikmatova Dildora Mirzo qizi. “Globallashuv davrida tarbiyachiga qo‘yiladigan talablar”. nauchniyimpuls.ru
- 9) Abduraimov Eldor Qurbonboy o‘g‘li. “Globallashuv davrida O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy muammolari (ta’lim tizimi misolida)”. [Pedagoglar](#)
- 10) Yoqubov Jamshid G‘ulomjon o‘g‘li. “Globallashuv davrida ‘ommaviy madaniyat’ning yoshlar ongiga tahdidi”.